

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA DAVR TALQINI

Dildora Oxbutayeva

ANNOTATSIYA

She'riyat olami qalb ozuqasining bulog'idir. Shavkat Rahmon yana bir go'zal shoirning she'rlarida davr talqini haqida maqolamizda yoritishga qaror qildik.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, Shukur Qurbon, Erkin Vohidov, Tutzor xotiralari, istiqlol davri adabiyoti

Yigirmanchi asr o'zbek she'riyati o'nlab yetuk Iste'dod sohiblarining ijodi bilan alohida ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda, yetmishinchi yillarga kelib, she'riyatimizning taraqqiyotiga o'nlab ijodkorlar turfa xil ohanglarni olib kirishi bilan o'ziga xos badiiy tafakkurni shakllantirgan. Mana shunday xususiyatlarni e'tirof etgan holda o'zbekiston qahramoni Erkin Vohidov shunday yozadi:

“She'riyatimizga yangi avlod kirib keldi. Ohista, iymanib. Ulug'lar qoshida chuchinqirab emas, shahdam, dadil bamisoli to'yxonaga kirib kelgan o'spirinlarday olatasir va suron bilan kirib keldi. Ular shoir sifatida dolg'ali, behalovat davr bolalari. Qalb-u, xayollari anorday qontalash, kurraiy zaminning iztirob-u, umidlariga og'ushta bo'lgan, dunyoga zavq-u, shavq ham xavotir ko'zi bilan boqqan yoshlar. Ular yana shoir sifatida she'riyatda haqqoniyat va samimiyat, insonparvarlik g'olib bo'lib turgan, haqiqiy Iste'dod qadrlanib, nasihat o'rnini badiyat, jarangos o'rnini ishontirish qudrati egallab turgan bir davrning ijodkorlari”.¹

Darhaqiqat, yangi avlod she'riyati jahon adabiyotidagi mavjud an'analarni mukammal o'rgangan va o'z ijodida sinab ko'rgan bir qator yoshlarni maydonga chiqardi. Yitmishinchi yillar she'riyatiga kirib kelgan Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Shukur Qurbon, Shavkat Rahmon, qutlibeka Rahimboyeva kabi o'z davrining yetuk este'dodli sohiblari va sohibalarini yaratgan badiiy asarlari bugungi davrga kelib yuksak darajada baholanmoqda. Ana shunday ijodkorlardan biri Shavkat Rahmondur.

Haqiqiy ijodkor she'riyatga kirib kelar ekan, turli xil shakl va mazmunda o'z uslubini namoyon qiladi. She'riyatning buyuk qudrati ham o'quvchini o'ziga rom etishi bilan izohlanadi. Chunki inson ruhi uchun dard ham, shodlik ham doimo uzviy bog'liqlikda yashab keladi.

Shoir she'riyati bilan tanishar ekanmiz, uning ma'naviy olamini tasavvur etamiz. Undagi tuyg'ular, kechinmalar inson qalbini larzaga solishga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Inson

¹Erkin Vohidov. “Shoir-u, she'r-u, shuur” Adabiy o'ylar 1978-yil 117-118-betlar.

ruhiyatidagi o`zgarishlarni, hissiyotlarning keng sil-silasini turfa xil bo`yoqlarda aks etdirish, odamzod shuurini band etgan muammolarni murakkabligi bilan suratlantirish, shaxsning yuksak milliy, umuminsoniy mohiyatini ochib berishga intilish an`anasi yetakchilik qiladi. Ijtimoiy ongda yuzaga kelgan o`zgarishlar ifodasi sifatida ko`ngil dunyosining teran qatlamlariga kirib borish, uni idrok qilishning yangicha shakllarini kashf qilish uslubiy, shakliy izlanishlar samarasi ularoq, yuksak didli shoir she`riyatida haqida adabiy tanqidchilikda turfa xil mulohazalar, qarashlar, tahlillar ham vujudga keladi. Shuning uchun shoir she`riyatida haqidagi adabiy-tanqidiy mulohazalarga va sho`rolar davridagi jamiyatimizning og`ir ahvoliga munosabat bildirib o`tishni lozim topdik.

Shavkat Rahmon she`riyatida narsa va xodisalarga katta ma`no yuklaydi. Xodisalardan falsafiy umumlashmalar yasaydi. Natijada, ular jonsizlikdan jonlilikka aylanadi, insoniylashadi. Tut daraxtini hamma biladi. Uning boshiga tushadigan savdodan (yiliga kasallanishlar bo`lishidan) barcha xabardor. Lekin o`zbek xalqi hayotiga juda yaqin shu voqelikdan kishiga o`z o`tmishi xususida chuqur mushohada yuritishga va istiqloq mohiyatini anglashga beradigan ijtimoiy xulosani ko`pchilik o`ylab ko`rmagan. “Tutzor xotiralari” she`ri shunday boshlanadi:

Tutzor, kallaklangan birodarlarim,
Osmonga bosh tirab turibsiz hamon.
Mayishgan tumsoqdek badanlaringiz,
Dahshatli qudrat-la ezganday osmon.

Tasvirning haqqoniyligi, tiniqligi shoirning badiiy tasavvuridagi mantiqni kuchaytiradi. Bu yerda barcha ot, sfat, fe`llar ramziylashgan. Tutzor o`z fikriga ega bo`lganlar, erkinlikka intilganlar. Lekin ularning niyati amalga oshmagan. Kallaklangan yo`q qilingan deganidir. Ular o`ldirilgan bo`lsalar-da, ruhlari tirik. Hamon isyon qilishadi. Bu kabi tushunchalar lirik qahramonning dard-u iztiroblari sifatida namoyon bo`ladi. Shoir she`riyatida voqea-hodisalarning mohiyatini teran his qilish, anglash qiyin kechmaydi. Eng xarakterli tomoni, shoir o`zidagi barcha xususiyatlarni mohirlik bilan she`riy misralar tarkibiga singdiradi.

Adabiyotshunos olim N. Karimov “istiqloq davri adabiyoti” tadqiqotida Shoir she`riyatida haqida shunday yozadi:

“Shavkat Rahmon qalb ko`zi ochiqligidan hamma narsani yorqin ko`radi. Zakovati kuchliligidan barcha narsaning mohiyatini chuqur anglab yetadi. Ruhi tetikligidan kelajakka nikbin boqadi. Bu holatni she`rida namoyon qilishi bilan kishilar qalbiga jasorat hamda g`urur chirog`ini yoqadi.”²

²N. Karimov. “Istiqloq davri adabiyoti” Darslik. Toshkent Yangi nashr nashriyoti 2010-yil 29-bet.

Haqiqatdan ham shoir qoldirgan ijodiy me'ros o'zbek she'riyatini yuksak darajalarga ko'tardi.

O'rmonlar jim, yig'lamas shamol,
Soy sayramas, baqalar jimdir.
Ingroqlarga to'lib ketgan tun,
G'amgin qo'shiq aytadi kimdir.

Shoirning "tungi manzara" she'ridan keltirilgan bu misralarda xalqimizning og'ir, ayanchli o'tmishi, tariximizdagi hayoti o'z aksini topgan. Mana bu misralarga ham e'tibor bering. Unda davrning ruhiy zarbalaridan ezilgan qahramonning noroziliklari shundoqqina aks etib turibdi.:

Otim o'lgan, qilichim singan,
Majaqlangan sovut, qalqonim.
Kim tashladi meni bu choqqa?
Qayda qoldi yorug' osmonim?

Istibdod davri. Sho'rolar jamiyatining salbiy tomonlari: erksizlik, hurfikrlilik g'oyalarini yuzaga chiqarishga, bor haqiqatni baralla aytishga imkon bermagan edi. Ammo o'z davrining yetuk este'dod sohibi Shavkat Rahmon Bunday holatlarni misralarga singdira olgan edi. Shoir she'riyatida ona vatanga, bu zaminga, odamlarga muhabbat hissi yetakchilik qilardi. Uning She'riyat va haqiqat tuyg'ulari adolatsizlik va shafqatsizliklar bilan tinimsiz kurashadi. Bu hislatlar shoir xarakterida ham mujassamlashgan bo'lib, haqsizlikka, adolatsizlikka hayotda ham betinim kurashgan. Sho'irni yuksak darajaga ko'targan xususiyati ham o'z haqligi, xalqiga, millatiga cheksiz hurmat ila qaraganligi bilan izohlanadi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy yo'ldoshov shunday yozadi:

“Asl she'riyat yo muhabbatdan yoki nafratdan tug'uladi. Shavkat Rahmon bitiklari aksar hollarda Adolatsizlik, yovuzlik, xunuklik, olchoqlik va xiyonatga adoqsiz nafrat tufayli paydo bo'lgan. Shu boisdan, ular jismni to'blovchi og'riqqa po'rtanavor ruhiy to'lg'oq va shamshirday keskir fikrlarga boy. Shavkatning she'rlari kishini o'yga toldiradi, iztirobga soladi, ruhiy og'riqlarga duchor qiladi. Chin so'z, chin tuyg'u, chin amallarga doimiy intiqlik belgilaridandir.”

3

Xullas, Shavkat Rahmon tabiatni tasvirlash orqali xalq boshiga tushgan og'riqli voqelarni qalamga oladi. Bir qo'li bilan maysalar va giyohlarni silasa, ikkinchi qo'li bilan Shurolar tuzumidagi nokas, sotqinlarning va nohaq zulmkorlarning yuziga tarsaki uradi. Uning qalami va

³Qozoqboy Yo'ldoshov. "Ezgu so'zning umri". Shavkat Rahmonni xotirlab. Toshkent: "Sharq" nashriyoti 2012- yil 4-bet.

tili o`tkir, uslubi esa g`oyat dilbar. U nohaqlikni yoqtirmas edi. Garchan Shurolar tuzumi davrida haqiqatni so`zlash qanchalik qiyin va mashaqqatli bo`lsa-da, haqiqatning ko`ziga tik boqishdan aslo qurqmas edi. Darvoqe, she`riyat kasb emas, fazilat ham emas, she`riyat mashaqqat demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Erkin Vohidov “Shoir-u, she`r-u, shuur” Adabiy o`ylar 1978 117 118 betlar
2. N. Karimov “istiqlol davri adabiyoti” darslik T. yangi nashr nashriyoti 2010 29 bet
3. Q. Yo`ldoshov “ezgu so`zning umri” Shavkat Rahmonni xotirlab T. Sharq 2012 4 bet